



## O‘ZBEKISTONDA TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

### ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ESTABLISHING THE TASHKENT INTERNATIONAL FINANCIAL CENTRE IN UZBEKISTAN

<sup>1</sup>Alimardonov Elshod Dilshodovich

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Xalqaro moliya” kafedrasida professori, i.f.n. **G-mail:** [alimardonoved@gmail.com](mailto:alimardonoved@gmail.com)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Ushbu maqolada Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish va rivojlantirish sabablari, bosqichlari, huquqiy asoslari, kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari, tahdidlari, moliyalashtirish manbalari, undagi investorlar uchun qulayliklar, soliq imtiyozlari, zamonaviy tendensiyalar, markazning institutsional tuzilmasi, xalqaro raqobat ustunliklari berilgan.

*Eng.* - This article examines the reasons, stages, and legal foundations for the establishment and development of the Tashkent International Financial Centre, as well as its strengths and weaknesses, opportunities and threats, sources of financing, investor incentives, tax preferences, contemporary trends, institutional structure, and international competitive advantages.

#### Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *moliya markazi, xorijiy investitsiyalar, Angliya umumiy huquqiga tayanuvchi alohida yurisdiksiya, “sandbox” rejimi, xalqaro (chegaralararo) nizolarni hal etish, mintaqaviy g‘aznachilik markazi, islom moliyasi, moliyaviy texnologiyalar, “family office”, xalqaro raqobat ustunligi.*

❖ *financial center, foreign investments, a separate jurisdiction based on English common law, “sandbox” regime, cross-border dispute resolution, a regional treasury center, Islamic finance, financial technologies, family offices, unique selling points.*

#### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotida globalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning xarqaro raqobatbardoshligini, shuningdek eskport salohiyatini oshirish, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni ko‘paytirish, modernizatsiya qilish jarayoni sohaga yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni talab etadi. Bunda, xorijiy investitsiyalarning o‘rni kattadir. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish uchun

mamlakatdagi investitsion muhit, chet ellik investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan innovatsion rivojlanish, farovon turmush tarzi turli munosabatlar bilan bog‘liq moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Ayni paytda, yurtimiz shaharlarini kompleks rivojlantirish dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida bir qator shaharlar xususan, Toshkent shahri

qiyofasi tubdan o'zgarib bormoqda. Bu esa, mamlakatimiz shaharlarini iqtisodiy-moliyaviy qudrati va infratuzilmasini rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi PF-48-son Farmoni bilan Toshkent xalqaro moliya markazi (TXMM) tashkil etildi [1]. Farmonga ko'ra, markaz hududida moliyaviy, investitsiya va bank faoliyati, sug'urta, qimmatli qog'ozlar, to'lov tizimlari, islomiy va yashil moliya, fintech, raqamli (kripto) aktivlar, auditorlik, konsalting va yuridik xizmatlarni amalga oshirishga ruxsat berildi. Shu bilan birga, markaz tarkibida Toshkent xalqaro tijorat sudi ham tashkil etilishi belgilangan.

#### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

"Journal of Economic Behavior & Organization"da chop etilgan Binder, Cheung, Georgiadis va Sharma hammuallifliklaridagi "Institutions, international financial integration, and output growth" maqolasida institutsional sifat, xalqaro moliyaviy integratsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Mualliflar samarali institutlar va mustahkam huquqiy tizim xalqaro moliyaviy integratsiyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini kuchaytirishini ta'kidlaydi [2]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, institutsional sifati yuqori bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy integratsiya investitsiyalar oqimini oshirib, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi. Mazkur holatlar Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonda investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratish, moliyaviy institutlar samaradorligini oshirish va xalqaro moliyaviy standartlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

"Journal of Financial Crime"da chop etilgan Norman Mugaruraning "Tax havens,

offshore financial centres and the current sanctions regimes" maqolasida ofshor moliyaviy markazlar, soliq boshpanalari va xalqaro sanksiyalar rejimlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [3]. Muallif ofshor moliyaviy markazlarning global kapital harakati va investitsiyalar oqimida muhim rol o'ynashi bilan birga, moliyaviy jinoyatlar, noqonuniy kapital oqimi va sanksiyalarni chetlab o'tish xavfini ham yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda xalqaro moliyaviy markazlar faoliyatida shaffoflik, kuchli nazorat tizimi va xalqaro moliyaviy standartlarga rioya qilish muhim omil ekani qayd etilgan. Bular Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, "compliance" tizimini kuchaytirish, pul yuvishga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish va xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlash zarurligini asoslaydi.

"Journal of Financial Regulation and Compliance"da chop etilgan Ng va Kwokning "Emergence of Fintech and cybersecurity in a global financial centre" maqolasida global moliyaviy markazlarda "FinTech" texnologiyalarining rivojlanishi va kiberxavfsizlik masalalari tahlil qilingan [4]. Mualliflar raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi moliya sektorining samaradorligini oshirish bilan birga, kiberxavfsizlikka oid xavflarni ham kuchaytirishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda zamonaviy moliyaviy markazlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalar, raqamli infratuzilma va kuchli axborot xavfsizligi tizimlari muhim omil ekanligi qayd etilgan. Ushbu qarashlar Toshkent xalqaro moliya markazi faoliyatida "FinTech" ekotizimini rivojlantirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va xalqaro standartlarga mos kiberxavfsizlik tizimini yaratish zarurligini asoslaydi.

"Capitals of Capital: A History of International Financial Centres, 1780-2005" asarida xalqaro moliyaviy markazlarning XVIII asrdan XXI asrgacha bo'lgan tarixiy rivojlanishi

tahlil qilingan boʻlib, London, Nyu-York va Parij kabi yirik moliyaviy markazlarning shakllanish omillari yoritib berilgan [5]. Muallif moliyaviy markazlarning muvaffaqiyati iqtisodiy qudrat, siyosiy barqarorlik, rivojlangan bank tizimi, xalqaro savdo aloqalari va institutsional muhit bilan chambarchas bogʻliqligini taʼkidlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar Oʻzbekistonda Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Xususan, Toshkentni mintaqaviy moliyaviy markaz sifatida rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos huquqiy tizim, zamonaviy moliyaviy infratuzilma va investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish zarurligi mazkur asar gʻoyalari bilan hamohangdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son Farmonida Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishning huquqiy asoslari belgilangan boʻlib, unda markaz faoliyatining asosiy yoʻnalishlari sifatida bank, kapital bozori, sugʻurta, fintech, islomiy moliya, yashil moliya va raqamli aktivlar bozori rivojlantirilishi nazarda tutilgan. Farmonda markaz hududida maxsus huquqiy rejim, xalqaro arbitraj mexanizmlari va investorlar uchun keng koʻlamli soliq imtiyozlari joriy etilishi koʻzda tutilgan [1].

Toshkent xalqaro moliya markazi muhokama qilinar ekan, ushbu markaz yangi turdagi investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy oʻsishning samarali vositasi boʻlishi qayd etildi. Hisob-kitoblarga koʻra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qoʻshimcha 20-25 milliard dollar jalb qilish, yalpi ichki mahsulot oʻsishiga har yili qoʻshimcha 1 foizgacha hissa qoʻshish, 15 mingtagacha yangi yuqori malakali ish oʻrni yaratish, 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi qayd etilgan [6].

### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Mavzuni ilmiy oʻrganish, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil va

ilmiy abstraktsiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan. Maqolada, ilmiy abstraktsiya usulidan foydalanish zamirida Oʻzbekistonda Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati yuzasidan xulosalar chiqarildi, tizimli tahlil, statistik tahlil natijasida moliya makazining rivojlanish bosqichlari, unga xos tendensiyalar aniqlandi, markazning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlariga baho berildi.

### ***Tahlil va natijalar muhokamasi.***

Tadqiqotlarimizning koʻrsatishicha, TXMMni tashkil etishning huquqiy-funksional asosi uch qismdan iborat boʻladi.

Birinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish toʻgʻrisida"gi Farmoni bilan markazning tashkil etilishi, vazifalari, hududi, boshqaruv organlari va maxsus huquqiy rejimi belgilandi.

Ikkinchisi, "Toshkent xalqaro moliya markazi toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qoʻyildi. Unda markaz hududida Angliya umumiy huquqi va adolat tamoyillarini qoʻllash, mustaqil sud va arbitraj mexanizmlarini joriy etish koʻzda tutilgan.

Uchinchidan, soliq va bojxona rejimini amaliyotga kiritish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishidir.

Tadqiqotlarimiz koʻrsatishicha, markazni tashkil etish va rivojlantirish sabablarini bir necha omillar bilan izohlashimiz mumkin. 2026 yil 25 mart kuni bolib oʻtgan Prezident Administratsiyasi darajasidagi taqdimotda geoiqtisodiy keskinlashuv sharoitida kapital oqimlari uchun raqobat kuchaygani, Oʻzbekistonga tabiiy resurslar, oʻsayotgan iqtisodiyot va yangi samarai islohotlar bilan investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilayotganligi qayd etildi. Taqdimotda

hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qo'shimcha 20-25 milliard AQSh dollari jalb qilishi, yalpi ichki mahsulot o'sishiga har yili qo'shimcha 1 foizgacha hissa qo'shishi, 15 mingtagacha yangi yuqori malakali ish o'rni yaratishi, 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi ko'rsatilgan [6].

Tadqiqotlar asosida, TXMMni tashkil etish va rivojlantirish bosqichlarini shartli ravishda besh bosqichga ajratishimiz mumkin.

Birinchi bosqich – 2018-yil 21-dekabrda Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining navbatdan tashqari sessiyasi Prezidentimiz Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi.

Toshkent shahrini yirik ishbilarmonlik va moliya markaziga aylantirish bo'yicha strategiya ishlab chiqish zarurligini belgilanishi bilan tayyorgarlik bosqichi boshlandi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi 4-sonli "Toshkent shahrini infratuzilmaviy rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokida Toshkent shahrida amalga oshiriladigan loyihalar ro'yxati va investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun Toshkent shahri tumanlarini rivojlantirishning ustuvor sohalari tasdiqlandi.

2020-yilda "The city UK" bilan birgalikda Toshkent xalqaro moliya markazi qurilishining boshlang'ich tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bosqich – 2021-2024-yillardagi turg'unlik davri deb hisoblash mumkin. 2021-yil 1-maydan O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tugatilishi TXMM tashkil etish ishlarini sekinlashtiruvchi omil bo'ldi. 2023-yil mart oyidan Global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI)da Toshkent shahri Uyushgan markazlar

(Associate Centres) qatorida reyting asosida baholana boshladi va unga beriladigan baholar (baho ko'rsatkichlari) sonini 150 ga etkazish lozimligi qayd etildi.

Uchinchi bosqich – 2025-yildagi tayyorgarlik va konseptual muhokama bosqichi bo'lib bu davrda Toshkentda xalqaro moliya markazi g'oyasi yana ochiq muhokama qilina boshlandi.

To'rtinchi bosqich – 2026-yil martidan huquqiy-institutsional asosni qo'yilish bosqichi bo'lib aynan shu vaqtda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va 2026-yil 1-aprelda "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi e'lon qilindi, jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Beshinchi bosqich – moliya markazini amaliy ishga tushirish bosqichi bo'lib, mazkur bosqichda tartibga soluvchi organlar (regulyatorlar), sud, litsenziyalash, fond birjasi, soliq va migratsiya imtiyozlari to'liq ishlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TXMMning kuchli tomonlari (Strengths), eng katta ustunligi – maxsus huquqiy rejim va Angliya umumiy huquqiga tayanuvchi alohida yurisdiksiya modelidir. Bu investor uchun shartnoma ijrosi, nizo yechimi va mulkiy huquq himoyasini kuchaytiradi. Yana bir muhim ustunlik – markazda bank, sug'urta, kapital bozori, islomiy moliya, yashil moliya, fintech va kripto-aktivlar bir makonda jamlanayotganidir; bu esa uni oddiy biznes-zonadan ko'ra ko'proq "integratsiyalashgan moliyaviy platforma"ga aylantiradi.

TXMMning asosiy zaifligi – uning yangi institut ekanidir. Hozircha u Dubay xalqaro moliya markazi (DIFC, Dubai International Financial Centre) yoki Astana xalqaro moliya markazi (AIFC, Astana International Financial Centre) kabi ko'p yillik reputatsiya, chuqur likvid kapital bozori va global huquqiy pretsedentlar bazasiga ega emas. Ikkinchi

zaiflik – markazning amaliy muvaffaqiyati qog'ozdagi imtiyozlardan ko'ra ko'proq ijro sifati, kadrlar salohiyati, xalqaro sudyalari, arbitrlar sifati va tezkor regulyatorlar amaliyotiga bog'liq bo'ladi.

**Imkoniyatlari (Opportunities).** O'zbekiston kapital bozori, fintech, to'lov tizimlari va raqamli aktivlar bo'yicha faol islohotlar davriga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-254-sonli farmonida 2030-yilga qadar zamonaviy moliyaviy instrumentlar orqali fond bozoriga qo'shimcha 1 mlrd. AQSH dollari, jumladan 5 trln. so'mlik korporativ obligatsiyalar chiqarish maqsadi belgilangan. 2026-yilda kapital bozori bo'yicha "tartibga solish qumdoni" rejimi takomillashtirildi. Bu TXMMga yangi instrumentlar, listinglar, fintech va transchegaraviy xizmatlarni sinash uchun katta imkon yaratadi.

**TXMMga tahdidlar (Threats).** Tashqi tahdidlar qatoriga geosiyosiy noaniqlik, global kapitalning qimmatlashuvi, mintaqaviy raqobat va investorlarning huquqiy barqarorlikka yuqori talabini kiritish mumkin. Ichki tahdidlar esa, markaz va milliy regulyatorlar o'rtasida vakolatlar takrorlanishi, sud-amaliyotning yetarli darajada tez shakllanmasligi va xalqaro moliya institutlari, brokerlar, market-makerlar va yirik yurist firmalarning yetarli tezlikda kirib kelmasligi bilan bog'liq. Bu tahdidlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida ko'zda tutilgan institutlarning qanchalik tez va sifatli ishga tushishiga bog'liq.

Fikrimizcha, investorlar uchun qulayliklar ancha kuchlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi

Farmoni va undagi ilovalar bo'yicha: markaz ishtirokchilari xorijiy valyutada va hatto kripto-aktivda shartnoma majburiyatlarini bajarishi mumkin; chet ellik fuqarolarni mehnat faoliyati huquqini beruvchi alohida tasdiqnomasiz ishga qabul qilishga ruxsat etiladi; xodimlar va ularning oila a'zolari uchun 5 yilgacha maxsus viza tartibi mavjud; markaz hududidagi faoliyatdan olingan kapital va daromadni cheklovsiz repatriatsiya qilish huquqi beriladi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, TXMMdagi soliq imtiyozlari juda sezilarli darajada yaxshi. 2076-yil 1-yanvargacha markaz organlari va ishtirokchilarining markaz hududida ko'rsatilgan xizmatlardan olgan daromadlari foyda solig'i va ijtimoiy soliqdan ozod etilgan, chet el fuqarolarining markaz doirasidagi mehnat daromadlari jismoniy shaxsning daromad solig'i (JShDS)dan ozod etilgan, markazdagi ayrim obyektlar mol-mulk va yer solig'idan ozod qilingan; import qilinadigan tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlaridan ozod qilingan, markazdagi fond birjasida ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlarni sotishdan hamda ulardan olinadigan dividend va foizlardan tushgan daromadlar ham soliqlardan ozod etilgan, O'zbekiston rezidentlari uchun markaz organlari va ishtirokchilaridan olinadigan mehnat daromadiga 7 foizlik stavka qo'llaniladi, markaz xizmatlari QQSdan ozod etilgan.

Shu bilan birga, noqulay va salbiy jihatlardan ham bor. Birinchidan, soliq imtiyozlari amalda to'liq ishlashi uchun ularga mos ikkilamchi normativ baza tez va aniq qabul qilinishi kerak. Ikkinchidan, haddan tashqari keng imtiyozlar ayrim hollarda markaz va markazdan tashqaridagi subyektlar o'rtasida teng bo'lmagan raqobat hissini tug'dirishi mumkin. Uchinchidan, raqamli aktivlar va xalqaro arbitraj segmentlari reputatsion risklarga juda sezgir hisoblanadi.

Zamonaviy tendensiyalar ichida uch yo'nalish alohida ajralib turadi.

Birinchisi, kapital bozorini chuqurlashtirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-254-sonli farmonida 2030-yilga qadar fond bozoriga qo'shimcha 1 mlrd. dollar jalb qilish vazifasi qo'yilgan.

Ikkinchisi, raqamli va tajriba-sinov rejimlari. 2026-yilda kapital bozori "sandbox" rejimi kengaytirildi, shuningdek barqaror tokenlar aylanmasi uchun maxsus huquqiy rejim joriy etildi.

Uchinchisi, islomiy va yashil moliya. TXMM doirasida aynan shu segmentlar ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Demak, TXMM klassik ofshor markaz emas, balki aralash modeldagi mintaqaviy ixtisoslashgan moliya xabi sifatida loyihalanmogda.

Jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan TXMMning o'rni hozircha miqyos emas, balki strategik joylashuv va institutsional tuzilmasi shakli bilan belgilanadi. U Markaziy Osiyo, MDH, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo kapitali tutashadigan hududda joylashgan bo'lib, ayniqsa xalqaro (chegaralararo) nizolarni hal etish (cross-border dispute resolution), mintaqaviy g'aznachilik markazi (regional treasury), islom moliyasi (islamic finance), moliyaviy texnologiyalar (Fintech, financial technology) va listing xizmatlari bo'yicha mintaqaviy markazga aylanishi mumkin. Biroq buning uchun operatsion bosqichda xalqaro banklar, yuridik firmalar, reyting agentliklari, market-makerlar va professional xizmatlar ekotizimi tez shakllanishi zarur. Bu hali oldindagi asosiy sinovdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, TXMMning institutsional tuzilmasi to'rt asosiy blokdan iborat:

- Kengash;
- Moliyaviy xizmatlar boshqarmasi;
- Ma'muriyat;

– Toshkent xalqaro tijorat sudi.

Kengash markazning strategik boshqaruv organi hisoblanadi. Uning tarkibiga Bosh vazir, Bosh vazir o'rinbosari, Prezident Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari, investitsiyalar vaziri, adliya vaziri, Markaziy bank raisi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (National Agency for Prospective Projects, NAPP) direktori, shuningdek xalqaro moliya markazlari, kapital bozori, bank faoliyati va huquqshunoslik bo'yicha mustaqil a'zolar kiradi. Bu shakl markazni bir vaqtning o'zida siyosiy qo'llab-quvvatlash, regulyatorlar koordinatsiyasi va xalqaro ekspertiza bilan ta'minlashga qaratilgan.

Moliyaviy xizmatlar boshqarmasi mustaqil tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida ko'zda tutilgan. U sohaga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi. Ma'muriyat esa, markaz ishtirokchilarini ro'yxatga olish, nomoliyaviy xizmatlar bo'yicha litsenziya berish, ijaraga joy ajratish va boshqa servis funksiyalarini bajaradi. Bu ikki institutning ajratilishi "regulyator" va "operator" funksiyalarini bir-biridan ajratish orqali manfaatlar to'qnashuvini kamaytirishga xizmat qiladi.

Toshkent xalqaro tijorat sudi markazning eng o'ziga xos institutidir. U birinchi instansiya va apellyatsiya sudidan iborat bo'lib, milliy sud tizimidan alohida mustaqil sud sifatida tashkil etiladi. Sud markaz va raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyati bilan bog'liq nizolarni, taraflar ushbu sud yurisdiksiyasini tanlagan shartnomalardan kelib chiqadigan nizolarni, xorijiy investorlar ishtirokidagi ayrim ma'muriy nizolarni hamda O'zbekiston hududida joylashgan arbitraj ishlari bilan bog'liq masalalarni ko'radi. Uning qarorlari taraflar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston sud hujjatlari kabi ijro etiladi.

Hududiy jihatdan markaz Toshkent shahri Shayxontohur tumanida, Islom Karimov shoh ko'chasi va Yangi Toshkent tor ko'chasi

atrofidagi aniq koordinatalar bilan belgilangan hududda joylashtirilgan.

Moliyalashtirish manbalari sifatida 2026-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 20 mln. AQSh dollari beg'araz mablag', davlat budjeti, markaz organlari xizmatlaridan tushumlar, ishtirokchilar ajratmalari va boshqa taqiqlanmagan mablag'lar nazarda tutilgan.

TXMMning birinchi xalqaro raqobat ustunligi – dual-huquqiy modelidir. Ya'ni, O'zbekiston suveren hududida bo'la turib, markaz hududida Angliya umumiy huquqi va adolat tamoyillariga yaqin maxsus rejim qo'llanishidir. Bu model AIFC va DIFC singari markazlarning eng kuchli institutsional belgisidir; TXMM ham aynan shu yo'lni tanlamoqda.

Ikkinchi ustunlik – ko'p segmentli ixtisoslashuv hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida markaz faoliyati faqat bank yoki qimmatli qog'ozlar doir operatsiyalar bilan cheklamaydi, balki u bank, investitsiya, sug'urta, fintech, islomiy moliya, yashil moliya, to'lov tizimlari, raqamli aktivlar, auditorlik va yuridik xizmatlarni yagona platformada birlashtiradi. Bu TXMMni tor ixtisoslashgan emas, balki moliya xizmatlari klasteri sifatida shakllantiradi.

Uchinchi ustunlik – mintaqaviy geoiqtisodiy pozitsiya. Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik bozorlaridan birida joylashgan bo'lib, ishlab chiqarish, xomashyo, transport yo'laklari, mehnat resurslari va ichki talab bilan uyg'unlashgan. Bu TXMMga "qog'ozdagi markaz (paper center)" emas, balki real iqtisodiyotga xizmat qiluvchi onshor xalqaro moliya markazi (mamlakat ichida faoliyat yurituvchi xalqaro moliya markazi) bo'lish imkonini beradi.

To'rtinchi ustunlik – soliq, migratsiya va repatriatsiya paketining kuchliligi. Foyda

solig'i, ijtimoiy soliq, QQS, ayrim hollarda JShDS, bojxona va kapital daromadlari bo'yicha imtiyozlar, 5 yillik maxsus viza va kapitalni cheklovsiz olib chiqish huquqi investor uchun juda jozibador kombinatsiyadir. Ayniqsa, professional xizmatlar, holdinglar, investitsiya fondlari, treasury-markazlar (treasury centers, korxonalar yoki kompaniyalar guruhining asosiy moliyaviy boshqaruv markazlari) va "family office"lar (family offices, yirik boylikka ega oilalarning aktivlarini boshqaruvchi professional tuzilmalar) uchun bu sezilarli jalb qiluvchi omil yoki o'ziga tortuvchi omil bo'lishi mumkin.

Beshinchi ustunlik – yangi avlod moliya yo'nalishlariga asosiy e'tibor. TXMM tashkil etilishida fintech, islomiy moliya, yashil moliya va raqamli aktivlar alohida ko'rsatib o'tilgani uning kelajakdagi xalqaro raqobat ustunliklarini belgilaydi. Ayni paytda O'zbekistonda kapital bozorini chuqurlashtirish, "sandbox" (qumdon) mexanizmlari va stable (barqaror) tokenlar bo'yicha maxsus rejimlar joriy qilinayotgani TXMM uchun innovatsion maydon yaratadi.

### ***Xulosa va takliflar.***

Toshkent xalqaro moliya markazi – O'zbekistonning moliya tizimini bank-markazli modeldan ko'p kanalli, xalqaro integratsiyalashgan modelga o'tkazishga qaratilgan yangi institutdir. Uning konseptual kuchi – maxsus huquqiy rejim, mustaqil sud, soliq imtiyozlari, kapital repatriatsiyasi erkinligi va ko'p segmentli ixtisoslashuvdadir. Shu bilan birga, TXMMning real muvaffaqiyati normativ tizimdan ko'ra ko'proq ijro sifati, xalqaro ishonch, bozor chuqurligi va professional ekotizim tezligiga bog'liq bo'ladi. Hozircha u "faol ishlayotgan global markaz" emas, balki katta institutsional salohiyatga ega, ammo hali operatsion reputatsiyasini isbotlashi kerak bo'lgan yangi moliyaviy platformadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi PF-48-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8103316>
2. Binder, M., Cheung, Y. L., Georgiadis, G., & Sharma, S. (2024). Institutions, international financial integration, and output growth. *Journal of Economic Behavior & Organization*, 450-472. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0167268124000210>
3. Mugarura, N. (2017). Tax havens, offshore financial centres and the current sanctions regimes. *Journal of Financial Crime*, 200-222. <https://doi.org/10.1108/JFC-01-2016-0008>  
<https://www.sciencedirect.com/org/science/article/abs/pii/S1359079017000252>
4. Ng, A. W., & Kwok, B. K. B. (2017). Emergence of Fintech and cybersecurity in a global financial centre. *Journal of Financial Regulation and Compliance*, 422-434. <https://www.sciencedirect.com/org/science/article/abs/pii/S1358198817000256>
5. Cassis, Y. (2006). *Capitals of Capital: A History of International Financial Centres*, 1780-2005. Cambridge University Press.  
Walter, I. (2008). Review of *Capitals of Capital: A History of International Financial Centres*, 1780-2005. *Journal of International Economics*, 242-244. <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2007.09.001>  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0022199607001146>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. "Moliya va raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi tashabbuslar taqdimot qilindi". 25.03.2026. <https://president.uz/oz/lists/view/9048>